



MAQSUD SHAYXZODA IJODIDA VATAN VA MILLAT G'OYASI

Amirxonov Ibrohim Abdurahmon o'g'li

Toshkent Davlat Transport Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning badiiy merosida Vatan va millat g'oyasining o'rni, uning asarlarida milliy o'zlik, tarixiy xotira, ozodlik ruhi hamda vatanga muhabbatning badiiy talqini keng o'rganiladi. Shoirning she'riy va dramatik asarlarida milliy ruhning shakllanishi, tarixiy shaxslar obrazini yaratish jarayoni, Vatanga sadoqat kontsepsiyasining badiiy-uslubiy ifodasi ilmiy-nazariy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Maqolada Shayxzodaning ijodiy qarashlari, siyosiy bosimlarga qaramay milliy g'oyani asrab qolishdagi jasorati hamda turkiy xalqlar ma'naviy birligiga qo'shgan hissasi yoritiladi.

Abstract: This article extensively studies the role of the idea of the Motherland and the nation in the artistic heritage of Maqsud Shaikhzoda, the artistic interpretation of national identity, historical memory, the spirit of freedom and love for the homeland in his works. The formation of the national spirit in the poet's poetic and dramatic works, the process of creating the image of historical figures, the artistic and stylistic expression of the concept of loyalty to the Motherland are analyzed on the basis of a scientific and theoretical approach. The article highlights Shaikhzoda's creative views, his courage in preserving the national idea despite political pressures, and his contribution to the spiritual unity of the Turkic peoples.

Kalit so'zlar: Maqsud Shayxzoda, Vatan g'oyasi, milliy ruh, ozodlik, tarixiy xotira, milliy o'zlik, dramaturgiya, she'riyat.

Keywords: Maqsud Shaikhzoda, idea of the Motherland, national spirit, freedom, historical memory, national identity, dramaturgy, poetry.



Maqsud Shayxzoda ijodida Vatan va millat g'oyasi markaziy o'rin tutadi. Shoirning hayotiy taqdiri, surgun yillari va ijodiy shakllanishi aynan mana shu mavzularning chuqur badiiy ifodalanishiga sabab bo'lgan. Ozarbayjondan nohaq surgun qilinib Toshkentga kelgan Shayxzoda Vatan degan tushunchani faqat geografik hudud emas, balki ruhiy makon, ma'naviy boshpana, insonning ichki olami sifatida talqin qiladi. O'zbekiston uning uchun hayotining ikkinchi Vatani bo'ldi va shoir bu yurtda ham millat, tarix va Vatan timsoliga sadoqatli ijodkor bo'lib yashadi. Shayxzodaning "Toshkentnoma", "She'r chin go'zallik singlisi ekan", "Xiyobon" kabi asarlarida Vatan obrazlari ruhiy-falsafiy mazmun kasb etadi. Shoir o'z asarlarida Vatanni avvalo xalqning tarixiy xotirasi, mehnatkash insonning olijanob fazilatlarini, til, ruhiyat va madaniy yodgorliklar bilan bog'laydi. U uchun Vatan — bu insonni tarbiyalovchi, unga ma'naviy quvvat beruvchi buyuk kuchdir. Shu bois Shayxzodaning she'rlari ko'pincha ruhiy-uslubiy yengillik, hayotiy ma'no, milliy g'urur va kelajakka ishonch bilan sug'orilgan. Dramaturg sifatida shoirning Vatan va millat haqidagi qarashlari yanada keng qamrovda namoyon bo'ladi. Uning eng mashhur asarlaridan biri — "Jaloliddin Manguberdi" tragediyasi — millatning tarixiy qahramonlik ruhi, ozodlik g'oyasi va yurt himoyasi masalasini yuksak san'at darajasiga ko'taradi. Shayxzoda o'zbek tarixidagi eng og'ir davr — mo'g'ul istilosi fonida milliy birdamlik, erk uchun kurash va Vatan yo'lida jon fido qilish g'oyalarini teran badiiy talqin etadi. Jaloliddin obrazi orqali shoir milliy o'zlik va erkinlik ruhining abadiyligini namoyish etadi. Asar o'z davrida sovet mafkurasi uchun ham katta jasorat bo'lgan, chunki mustaqillik ruhi ochiq ifoda etilgan edi. Shayxzoda she'riyatida millat g'oyasi ko'pincha obrazlar tizimi orqali beriladi: daraxtlar, shahar manzaralari, tarixiy voqealar, xalqona hikmatlar, tabiatning tiniq tasvirlari orqali shoir milliy identifikatsiyani badiiylashtiradi. Uning tasvirlarida O'zbekistonning bo'stonlari, an'anaviy qadriyatlari, xalqining samimiy qiyofasi ramziy ma'nolar kasb etadi. Shoirga ko'ra, millat faqat qon-qarindoshlik emas, balki ruhiy birlik, madaniy meros, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlardan iborat bir butun tizimdir.



Surgun davri Shayxzoda dunyoqarashida Vatan va erkinlik masalalarining yanada chuqurroq anglanishiga sabab bo'lgan. U o'z she'rlarida o'zga yurtida yashagan bo'lsa-da, millat va Vatandan uzilmagan, milliy ruhni yangi shakllarda ifodalagan. Bu holat shoir ijodiga o'ziga xos badiiy ohang, ichki iztirob, ruhiy kurash va ma'naviy poklanish motivlarini kiritdi. Shayxzodaning ilmiy merosida ham Vatan va millat masalasi muhim o'rin tutadi. Uning Navoiyshunoslikka oid ilmiy maqolalari, tarjimalari, klassik adabiyotga bo'lgan chuqur e'tibori ham milliy madaniyatni asrab-avaylash, uni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Shoir klassik merosni o'rganish va targ'ib qilish orqali millatning ma'naviy ildizlarini mustahkamlagan, yosh avlod ongiga tarixiy g'urur va milliy o'zlik tuyg'usini singdirgan. Maqsud Shayxzodaning ijodi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Uning asarlarida ilgari surilgan Vatan, erkinlik, milliy birlik, ma'naviy mustahkamlik, xalqparvarlik g'oyalari hozirgi globallashuv davrida ham xalqimizning ruhiy tayanchiga aylanmoqda. Shoirning millat haqidagi talqinlari — bu nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi avlod uchun ham ma'naviy dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalangan adabiyotlar

1. Karimov N. Maqsud Shayxzoda (ma'rifiy-biografik roman). Toshkent: Sharq nashriyoti, 2009.
2. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1999.
3. Shayxzoda M. Shoir kalbi dunyoni tinglar (tanlangan asarlar). Toshkent: Nihol, 2008.
4. Maqsud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida. Toshkent, 1983.